



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI VA JAMOAT BIRLASHMALARI O'RTASIDAGI HAMKORLIK

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabalasi*

**Normamatova Mavluda Furqat qizi**  
*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*  
**Achilov Obid Muzrobovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti va jamoatchilik birlashmalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlari bilan munosabati shakllanishi to'g'risida so'z yuritiladi. Shuningdek mavzu doirasida maktabgacha yoshidagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorlashning ahamiyati ko'rsatilib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Ota-ona, tarbiyachi, maktab, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti, boshlang'ich ta'limga bir yillik bepul majburiy tayyorlov guruhlarini, oila, o'qitish usuli.

**Kirish:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim jarayonining poydevori bo'lib hozirgi kunda tashkilotdagi pedagogik jarayonlar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi 2017 yilgacha Xalq ta'limi vazirligi tarkibida bo'lib, keyinchalik 2017-yil 30-sentabr dagi PQ-3305 qarori bilan alohida vazrlikka ajralganining o'zida katta ma'no bor. Maktabgacha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash bosqichi bola hayotida muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga ko'rsatilgan hozirgi kundagi e'tiborning asosiy maqsadi uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'ini hisoblanib, tashkilotdagi turli yosh guruhlaridagi bolalar uchun Maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari asosida hamda "Ilk qadam" davlat dasturi doirasida ko'pgina me'yor va qoidalar belgilab qo'yilgandir. Jumladan, Vazirlar mahkamasining 09.03.2020-yilda qabul qilingan №132 sonli qarori bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo'yicha dastlabki loyhadir. Bundan maqsad maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar uchun tayyorlov guruhlarini shakllantirish, bu guruhlarda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalarni davlat talablarga muvofiq har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Barcha ota onalar bolalari uchun eng yaxshisini ravo ko'rishadi shuningdek ular farzandlarining orzu umidlariga bo'lgan qiziqishlarini usun qo'yishadi. Shu bois maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonini biz to'laqonli ravishda jamoat birlashmalari bilan bo'ladigan hamkorlikda olib borishimiz muhimdir. Bunday hamkorlik to'rtta birlashma orqali amalga oshirilsagina maqsadga muvofiq boladi.

1. Ota-onlarga va oila a'zolari.
2. MTT.
3. Maxalla.



#### 4. Maktab.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari oila va mahalliy jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalarini olib borish bola hayotidagi ta'lim va tarbiyaning uzviyiligi hamda muqobilligini ta'minlaydi deb o'ylaymiz. Chunki yosh avlodning aynan maktabgacha yoshidagi davrida egallagan bilim, ko'nikma va malakalari undan keying ta'lim bosqichlari uchun poydevor bo'la oladi.

Biz "hali erta deyishimiz" bolaning o'sishi va rivojlanishiga to'siq bo'ldi. Uch yoshdan katta bolalarga nimani o'rgatish masalasiga ko'p etibor bramiz. Ammo zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra uch yoshgacha bola bosh miyasining 70-80 foizi rivojlanib bo'ladi. Bu esa biz uchun bola miyasini erta rivojlantirishga yo'naltirishimiz kerakligini anglatmaydimi? Bu bilan sizga ilk bolalaik davrida bolaga erta ta'lim berib uni raqamlar va har xil ma'lumotlar bilan majburan aqliy rivojlantirishga erishish degani emas, asosiysi hamma tajriba va ta'lim usullarini "o'z vaqtida" qo'llay olishimiz. Biz ta'lim deganda o'qib-o'rganishdan iborat deb o'ylaymiz. Ammo, bu davr yani maktabgacha ta'lim – o'qib-o'rganishdan avvalgi bosqichda ketadigan o'yin faoliyatini qamrab olgan, bolalarning aql va idroklarining shakllanishini rivojlantiradigan uzluksiz ta'limning birinchi bo'g'inidir. Bolaning qiziqishi va bu jarayonning borishini tashkil eta oladigan yagona shaxs – onadir. Shunday ekan ota-onalarimiz bolaning ta'lim va tarbiyasiga ma'suliyat bilan qarashi lozim.

MTT tarbiyachisi uchun o'z fikrlariga o'xshamaydigan u tomonidan tashkillashtirilgan jamoat ishlarida, tadbirlarda, majlislarda qatnashmaydigan oiladagi ota-onalar bilan ishlash qiyinchilik tug'diradi. Bunday ota-onalar bilan ishlashda tarbiyachi pedagogik qobiliyatlarga ega bo'lishi kerakdir. Chunki buday ota-onalar o'z farzandalari va ularning ta'lim va tarbiya olishlari xususida nisbatan kam bilimga ega bo'lishi yoki o'zi ishlari bilan bola tarbiyasiga e'tiborsiz bo'lib qolishlari mumkindir. Bu masalada tarbiyachi tomonidan hamkorlik olib boriladigan oilalar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'ishlari kerakdir. Bunday hamkorlik olib borishda tarbiyachidan kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalariga ega bo'lishlari kerak bo'ladi.

Doktor Shinichi Suzuki ta'kidlaganidek – "Qoloq bolalar yo'q. Barchasi o'qitish usuliga bo'g'liq". O'qitish bolada maktabgacha yoshidan tanlanishi kerak deb o'ylaymiz. Bu borada doktor Suzuki shunday tushintiradiki: - "men ta'limning ahamiyati haqida chuqur o'yladim va nima sababdan bu tizim shu qadar tajavuzkorlik va qanoatsizlikni vujudga keltirayotganini tushinishga harakat qildim. Avvaliga men bu tajovuzkorlik ildizlari universitet ta'lim tizimida mavjuddek tuyild. Biroq muammoni chuquq o'rganganicha angladimki, ayni masala o'rta maktab uchun ham xos ekan. So'ng maktabning o'rta va boshlang'ich tizimini o'rgandim va shunday xulosaga keldimki, bolaga bog'chada ham ta'sir ko'rsatish kech bo'lar ekan". Bu bilan nima demoqchimiz ota-onalar hozirgi kunda MTTgacha bo'lgan davrdan bola uchun nima to'g'ri-yu nima noto'g'riligini anglay olishlari zarurdi. Doktor Suzukidan necha ming yillar avval yashagan buyuk allomimiz Abu ali Ibn Sino ham shu borada yosh ota onaga bola tarbiyasini ona qornidagi paytidan boshlash kerak degan fikrlarini keltirishimiz mumkin. Bu bilan nima demoqchimiz ota-ona bolasini MTTga bergandan keyin barcha ma'suliyatni tarbiyachiga yuklamasdan u bilan birgalikda hamkorlik asosida ta'lim va tarbiya jarayonini olib borishi istardik.



Oilaning ta'lim va tarbiya jarayonida ishtirok etishni kengaytirish oilada ota-onadan tashqari uning boshqa a'zolari bilan aloqa yo'llarining izlab topish kerak. Ba'zi oilalarda bobo yoki buvi ota-ona ishda bo'lgan paytlarida bolalarga qarab turuvchi bo'lishi mumkin. Katta yoshdagi opa yoki aka bo'lgan taqdirda o'qish, yozish mashg'ulotlarini amalga oshirishda yordam berishlari mumkin bo'ladi.

Mahallaning bola tarbiyasidagi roli kattadir. Jumladan "Bir bolaga yeti maxilla ota-ona" – degan hikmatli so'zlar bejis emas. Bizning mentalitetimizdan kelib chiqqan holda qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi munosabatlar yuksak darajadadir. Mahalla faollari va MTT hodimlari o'rtasida uzviy bog'liqlik har xil tadbirlarda ikki tomonlama bo'lishi kerakdir.

Maktabgacha tashkilotidan nisbatan murakkabroq bo'lgan maktab ta'limiga o'tish bola uchun ham boshlang'ich maktab o'qituvchilari uchun ham qiyin bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'limda bola vaqtni boshqaruvga nisbatan moslashuvchan mustaqil bo'lishga davat etiladi. Ularga o'yinlar o'ynashga sharoit yaratiladi va mashg'ilot ham shu asosda tashkillashtiriladi. Bolaning maktab ta'limiga o'tish jarayonini 2 ta ta'lim maskani o'rtasidagi hamkorlik moslashishni birmuncha osonlashtirishga yordam beradi. Hamkorlik doirasida:

1. Bolalar to'g'risida qanday ma'lumotlarni bilish to'g'risida qaror qabul qilish uchun oilalar boshlang'ich sinif o'qituvchilari va MTTdagi pedagoglar o'rtasida uchrashuvlar tashkil etish.
2. Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'zi bo'lajak sinflariga bir ikki marta bir necha soatga borishlarini tashkil etish.
3. Bolalar rasm chizish va yangi o'qituvchilariga o'zlari, ularning oila a'zolari va ular yoqtirgan faoliyatlari to'g'risida ota-onalar xat yozib berishlarini so'rash lozim.
4. Maktabni bolalarga qo'rqmaslik kerak bo'lham qiziq joy sifatida ta'riflash va olalarni tarbiyalashda mustaqil bo'lishga undash, ota-onalarni qo'llab quvatlash lozim.
5. Sharoiti farq qiladigan oilalarga yordam berish. Masalan alohida ehtiyojlarga muhtoj oilalarning farzandlaridir. Boshlang'ich maktab vakillari bilan oila va mahllaning a'zolari o'rtasida norasmiy uchrashuvlar tashkil etilishi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim bolalarning mukammal shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib, bola rivojlanishining ijtimoiy holati hamda faoliyatiga mustaqil harakati bilan belgilanadi. Bu davrda bolalarda shaxs sifatlarida shakllanib, ularda katta taqlid qilish, o'zaro munosabatga kirishish, g'amxo'rlik, mehribonlik, qiziquvchanlik, o'ziga nisbattan talabchanlik hissi paydo bo'ladi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Maktabgacha ta'lim vazirligini tashkil etish" to'g'risidagi PQ-3305-sonli qarori 2017-yil 30-sentabr
2. "Oila va mahalliy jamotchilik bilan hamkorlik" – metodik qo'llanma. M.Ismoilova, M.Y.Shadina, G.G.Ismoilova, I.A.Kartashevich. Toshkent-2020-yil
3. F.Qodirova „Maktabgacha pedagogika” -2019-yil



4. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi 2018-yi 17-iyul ilk qadam davlat o'quv dasturi
5. O.U Hasanboyeva "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi "-2012-yil
6. Muzrobovich, A.O.(2023).MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH TEXNALOGIYSI. Научный Фокус, 1(7), 1040-1042.